

Ona yurti - oltin beshig

TONG Yulduzi

№35 (66368)
2002 yil
26 avgust,
dushanba
Sotuvda
erkin narxda

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi

Gazeta 1929 yil 1 avgustdan chiqq boshlagan.

1 sentabr — O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligi kuni

BIR KUNMAS, BOR KUNLAR SENIKI BO'LSIN, EY, MENING MUSTAQIL O'ZBEKISTONIM!

Non olgani do'konga chiqqandim. Qaytayotib, yangigina qad rostlagan ko'rkam inshootga ko'zim tushdi. «Bu ham xoynahoy Mustaqilligimizga sovg'a bo'lsa kerak» deb o'ylagandim. Mahallamiz oqsoqoli Hayrulla aka Mo'minov ham fikrimni tasdiqladilar.

- Shukrkim, yurtimiz istiqlolga erishganiga bu yil 11 yil bo'ladi, - deya so'z bochladilar Hayrulla aka mamnuniyat bilan. - Shu oz fursat ichida yurtimizda amalga oshirilgan ibratli ishlarni sanab adog'iga yetib bo'lmaydi. Uzoqqa bormay, «Chig'atoy

- Oq-tepa» mahallamizga nazar tashlaylik. Ilgarilari juda ko'rimsiz, fayzsiz edi. Hozir esa hammaning havasi keladi. Mahallamizning qoq o'rtasidagi tepalikni obodonlashtirib, mahallamizning ramzi sifatida kattakon laylakning timsolini o'rnatdik.

Sartaroshxona, choyxona, tele-radio sozlash xonasi, «Karima» shifoxonasi, dorixonalar, turli do'konlar xalqimiz xizmatida. Xullas, guzarimizda hamma narsa bor. Ayniqsa, siz bolajonlarga ko'rsatilayotgan g'amho'rliklar bisyor. Istiqlolimizning 7 yilligi tantanasiga sovg'a sifatida 261-maktab o'quvchilariga tennis korti, futbol, basketbol maydonlaridan iborat sport kompleksi qurdirib berdik. Mahallamizning bolalar futbol jamoasi o'tgan yili musobaqalarda 1 - o'rinni, bu yil esa 2 - o'rinni egallashdi. 10 yoshdan 16

yoshgacha bo'lgan ishlashni xohlovchi bolalarni ish bilan ta'minladik. 522 - bog'cha kichkintoylari ham bizning otalig'imizda.

Tarixsiz kelajak yo'q, deydi dono xalqimiz. «Qariyalarni qadrlash yili» munosabati bilan mahallamiz qoshida tarix muzeyi tashkil qildik. Undan uzoq yillar davomida o'zining halol mehnati,

neziya, Isroil, Germaniya, AQSH singari chet davlatlarda ham hurmat bilan tilga olishadi. Chunki chet ellik mehmonlar mahallamizga tez-tez kelib turishadi, ko'rkam, shinam guzarimizga, odamlarimiz orasidagi mehr-oqibatga havas qilishadi...

Ayni kunlarda Mustaqilligimizning 11 yilligini nishonlashga qizg'in hozirlik ko'ryapmiz. Nogironlarga, kam ta'minlangan oilalarga sovg'a-salomlar hozirlab qo'yganmiz...

Hayrulla akaning so'zlarini tinglayapmanu ich-ichimdan ularning fidoiylklariga, kamtarliklariga, g'ayrat-shijoatlariga astoydil havas qilyapman. Ular o'zlari haqida gapirishni yoqtirmaydilar. 1999 yilda «Eng tadbirkor mahalla oqsoqoli» hamda 2000 yillarda «Eng ibratli mahalla oqsoqoli» unvonlari sovrindori bo'lganlarini onamdan so'rab bilib oldim. Ularni, Asomiddin aka Rizayev,

Xojimurod aka Umarov, N.Xoshimov, D.Majidova, M.Mahkamova singari mahallamiz faollarini Mustaqillik ayyomi bilan samimiy qutlab, ibratli ishlarida muvaffaqiyatlar tiladim. Chunki ularning mehnatlari tufayli mahallamiz obod, dillarimiz shod bo'lyapti. Zero, Vatan ostonadan, demakki, mahalladan boshlanadi.

*Nigora ESHIMOVA,
Toshkentdagi arab tiliga
ixtisoslashgan 29 - maktabning
9 - sinf o'quvchisi.*



jonkuyarligi bilan elning hurmatiga sazovor bo'lib kelgan insonlarning suratlarini, qilgan ishlari haqida ma'lumotlar joy olgan. Farzandlarimiz Respublikadagi birinchi oqsoqol Hayitvoy ota Toshmuhammedov va ularning izdoshlari nomlarini yod olishlari, shuningdek, mahallamizda yashab, ijod qilayotgan olimlarimizning hayot yo'li, ilmiy izlanishlari bilan yaqindan tanishishlari mumkin.

Mahallamiz nomini nafaqat Respublikada, balki Fransiya, Gretsiya, Indo-

Mustaqil yurt bolalari- iqtidorlidir

Bundan bir necha yil ilgari gazetamiz sahifalarida Toshkent shahar, Hamza tumanidagi 206- maktabda tashkil etilgan «Kichik Akademiya» haqida ma'lumot bergan edik.

Unda Akademiya tarixga qiziquvchi, bilimdon o'g'il-qizlar ilmiy ish olib borayotganliklari aytib o'tilgan edi. Xo'sh, shu kunga qadar Akademiyaning a'zolari qanday yutuqlarni qo'lga kiritishdi? Ular nima ish bilan band?

berilgan har bir savolga hech qiynalmasdan javob berish uchun tinimsiz izlandilar.

« K i c h i k Akademiya»mizning sobiq o'quvchilaridan - Mahfuzaxon Zokirova Sharqshunoslik institutining tarix fakultetini bitirib, ayni kunda Germaniyada o'qishini davom ettiryapti. Hilola

«Quloqlashtirish» tarixiga oid kichik ilmiy ishini yozib tugatdi.

Eng quvonarlisi, uning ishi o'qituvchilarning navbatdagi avgust anjumaniga tavsiya etildi.

Bundan tashqari, Respublika Ta'lim Markazi «Kichik Akademiya» ning ishlarini ommalashtirish niyatida.

- Institutimiz ushbu maktab bilan hamkorlik qiladi,- deydi O'z FA, Tarix institutining kichik ilmiy xodimi Ilhomxoji aka Jamolov. -

KICHIK AKADEMIYADA

ILMIY ISH

- Bizning «Kichik Akademiya» miz bugungi kunda yaxshigina yutuqlarni qo'lga kiritdi,- deydi

Akademiyaning tashkil etilishiga o'z hissasini qo'shgan tarix fani o'qituvchisi, hozirda maktab direktori Mavjuda opa Vohidova. - Uni 1998 yilning yanvar oyida tashkillagandik. Shu yilning oxirlarida esa maktabimiz tarix faniga ixtisoslashtirildi. Qator

olimlar maktabimizga jalb qilinib, o'quvchilarimizga tarixdan saboq bera boshlashdi. Bolalar o'zlari tayyorlagan referatlariga keng yondoshadigan bo'lishdi. To'g'rirog'i, o'z referatlarini «himoya» qiladigan bo'lishdi. Sekin-astalik bilan 4-5 betli referatlar o'rmini 20- 60 betli ilmiy ishlar egalladi.

Eng asosiysi, o'quvchilarimiz har chorakda shahar miqyosida bo'ladigan harakatdagi seminarda o'z ilmiy ishlarini «himoya» qiladigan bo'ldilar. O'qituvchilar tomonidan

Hamkorligimiz ijobiy natijalarni beryapti.



«Kichik Akademiya» prezidenti Mavjuda Vohidova o'quvchi «aspirant»lar davrasida.

Nodirova ham qadimgi tillarni o'rganishga bel bog'lagan. Bu kabi o'quvchilarimiz talaygina.

Bugungi kunda Akademiya'dagi ikki «aspirant» - 10- sinf o'quvchisi Furqat G'oziyevning «O'rta Osiyo tarixida taponimlarning ahamiyati» hamda Tursunoy Mavlonovaning «Yil hisobi va kalendarlar tarixi» deb nomlangan broshyurasi bosmadan chiqdi.

Ko'plab o'quvchilar o'zlari istagan mavzularida ilmiy ish yozishga kirishib ketdilar. Jumladan, 10-sinf o'quvchisi Zulxumorxon Umarova 60 betli

o'quvchilarimiz ko'hna tarix varaqlarini varaqlaydigan iqtidorli bo'lajak olim va olimalardir.

Ular orasida «aspirant» o'quvchi Zulxumorxon Umarova ham bor. Unga institutimiz olimlarining ham e'tibori tushgan.

Zulxumorxonga 1920- 1930 yillardagi «Quloqlashtirish» tarixini ochib berish vazifasi topshirilgan edi. U bu tadqiqotga qattiq kirishib ketdi. Izlanishlari uni Alisher Navoiy nomidagi Davlat kutubxonasi sari yetakladi.

Zulxumorxonning ushbu maqolasi shu yaqin ikki yillik izlanishlari samarasidir.

Gulbadanbegim yaratgan «Milliy tarixnavislik maktabi» Rahima Aminova, Sabohat Azimjonova, Melixon Oxunova, Dilorom Alimova kabi tarixchi olimalarimiz tomonidan davom ettirilyapti.

Ularga munosib voris bo'lib bugun Zulxumorlar qalamlarini charxlayaptilar.

- O'zbekim tarixidagi «quloq qilish» siyosati bilan qiziqdim, - deydi 216-maktabning 10-sinf o'quvchisi Zulxumorxon Umarova. - Mustabid tuzum bu siyosatni zo'rvonlik,

maslahatlar, yo'l-yo'riqlar oldim. Voqelikni teran tushunishga intildim.

Ulug' adibimiz

A b d u l l a Qodiriyning o'sha davrni ochib bergan, shu asari uchun s o v e t amaldorlariga yoqmagan «Obid

ketmon» qissasini o'qib chiqdim.

Tadqiqotim davomida, ayniqsa professor Rustambek Shamsutdinovning «O'zbekistonda sovetlarning quloqlashtirish siyosati va uning fojiali oqibatlarini» kitobini o'qib qattiq ta'sirlandim.

O'zga yurtlarga quloq qilingan yurtdoshlarimizning ayanchli qismatlarini o'qib, beixtiyor sovet tuzumidan yanada nafratlandim. Shu bilan birga sabr-qanoatli, andishali, har qanday mushkul ahvolda ham yerning tilini bilib, dehqonchilikdan tuz-nasibasini topib, iymonini sotmagan xalqim bilan faxrlandim.

Izlanishlarimdan xabar topgan 77 yoshdan oshgan buvim tasodifan men uchun yangilik bo'lgan gapni aytib berdilar. Otamning buvalari ham quloq qilinganliklarini eshitib, darrov qo'limga qog'oz-qalam oldim-da, ularni tingladim...

Ha, Zulxumorxonning hali aytadigan gaplari ko'p. Gazetamizning keyingi sonlarida albatta bu mavzuga qaytamiz.

Hozircha esa maktabda tashkil etilgan «Kichik Akademiya» o'zini oqlayapti deb ayta olamiz. Istardikki, bunday Akademiyalar har bir maktabda bo'lsa. Har bir o'quvchi otabobolarining o'tmishi, taqdiri bilan qiziqsa. Ulardan to'g'ri xulosa chiqarib, bugunning qadriga yetsa ayni muddao bo'lardi.

Feruza SOYIBJON qizi.

Prezident asarlarini o'rganamiz

MILLIY ISTIQLOL G'OYASI: ASOSIY TUSHUNCHA VA TAMOYILLAR

(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda.)

O'zbekiston o'z ozodligini qo'lga kiritgach, mohiyatan xalqimizning tabiatiga, dunyoqarashiga yot bo'lgan kommunistik mafkuraga barham berildi. Ma'lumki, umrini o'tab bo'lgan g'oya, aqida yoki mafkura taraqqiyot nuqtai nazaridan inkor etilar ekan, jamiyatda yangi bir g'oya, ilg'or bir fikrning shakllanishiga ehtiyoj tug'iladi. Bu zarurat teran anglab yetilmagan holda esa g'oyaviy vakuum — bo'shliq yuzaga keladi. Lekin tabiatda vakuum — bo'shliq bo'lmagani kabi, mafkura sohasida ham bo'shliqqa yo'l qo'yib bo'lmaydi.

Bunday holatning oldini olish uchun mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab ko'pgina ishlar amalga oshirildi. Lekin ijtimoiy ong va tafakkur tezda o'zgarib, yangicha dunyoqarash osonlikcha shakllanavermaydi.

Aynan mana shunday sharoitda xalq va davlatning ezgu maqsadlariga yot va begona bo'lgan g'oyalar jamiyat hayotiga o'z ta'sirini o'tkazishga harakat qilishi muqarrar. Ayniqsa, g'oyaviy beqarorlik hukmron bo'lgan joyda mafkuraviy tahdid kuchayadi. Aholi keng qatlamlari, xususan, yoshlarning ongini egallashga urinishlar ortib boradi.

Dunyoning turli mamlakatlarida joylashgan, katta mablag' va ta'sir kuchiga ega bo'lgan ba'zi markazlar ana shunday vaziyatdan foydalanib, o'z yovuz niyatlariga erishmoq uchun urinmoqda.

Bu kuchlarning mamlakatimizga ko'z olaytirishi, bizga o'z hukmini o'tkazishga intilishining sababi — yurtimizning geopolitik nuqtai nazardan g'oyat qulay hududda joylashgani, intellektual salohiyat va tabiiy zaxiralarga boyligidir.

(Davomi bor.)



Ilhomxoji Jamolov rahbarligidagi ilmiy kengash a'zolari.

qiynash yo'li bilan amalga oshirdi.

Yurtboshimiz ta'biri bilan aytganda, «Sho'ro davrida o'zbek millatining tarixi buzib ko'rsatildi, ma'lumotlar chalkashtirib yoritildi, ba'zi sahifalari umuman ko'rsatilmadi».

Akademiyada ushbu mavzuda ijodiy ish yozib, ishimi «himoya» qilish uchun o'sha davrni chuqurroq o'rganishni boshladim. Bizni otaliqqa olgan O'zFA Tarix institutiga borib, tegishli



XATLAR TEGIRMONI



HAMMA KO'RDITOM OSHA...

Nimani deysizmi? Yaqinda poytaxtimizdagi «Jar» sport majmuasida bo'lib o'tgan «Futbol-shou»ni-da! Toshkent viloyati, Pskent tumani terma jamoasi futbolchilari Toshkent shahrining Obid Asomov, Valijon Shamsiyev, Shukrullo Isroilov, O'tkir Muhammadxo'jayev, Nuriddin Xaydarov, G'ulomjon Yoqubov, Samandar Xamroqulov va boshqalardan iborat ajoyibu g'aroyib terma jamoasi bilan bellashdilar. Juda qiziqarli va murossasiz o'tgan uchrashuvni Mirzabek Xolmedov sharhlab turdi. Futbol ishqibozlari bir taraf, san'at shaydolari bir taraf bo'lib o'z jamoalarini qo'llab-quvvatlab turishdi. Hisob 5:5 bo'ldi, do'stlik g'alaba qozondi. Tanaffus paytida san'atkorlar diltortar qo'shiqlari, ichakuzdi hangomalari bilan yig'ilganlarni xushnud etishdi.

Xullas, bo'ldi zo'r tomosha, hamma ko'rdi tom osha!

*Kamola HABIBULLA qizi,
Poytaxtimizdagi Obid Sodiqov nomli maktab
o'quvchisi.*

MEN HAM TALABA BO'LDIM

Ura! Nihoyat imtihonlar, hayajon va asabiyliklarning bari ortda qoldi. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari qadam qo'ygan o'quvchilar o'zlarini yettinchi osmonda parvoz qilayotgandek his etmoqdalar. Har bir o'rin uchun bo'lib o'tgan jang oson bo'lmadi. 500 dan ziyod o'quvchilar orasidan faqatgina 200 nafar o'quvchiga omad kulib boqdi. Ularning orasida men ham borman. O'zbekiston Milliy Universiteti qoshidagi akademik litseyning o'quvchisi bo'ldim. Bu litseyning o'quvchilari shahar, Respublika olimpiadalarida eng yuqori o'rinlarni qo'lga kiritib kelyaptilar va oliygohlarga birinchilar safida kirmoqdalar. Jumladan, Muharram Arslonova tayyorlagan Sanjar G'ulomov ismli bola Respublika bo'yicha biologiya fanidan o'tkazilgan olimpiadada birinchi o'rinni egallab, Toshkent Tibbiyot Institutining talabasi bo'lish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Litseylarga kirgan barcha tengdoshlarimni chin ko'nglimdan tabriklayman, omadi kulib boqmaganlarga esa kelajakda kattadan-katta muvaffaqiyatlar tilab qolaman.

Madina RASULOVA,

*O'zMU qoshidagi Sirojiddinov nomidagi akademik litsey
o'quvchisi.*

QO'SHALOQ BAYRAM MUBORAK!

Inson ortga, yashab o'tgan umriga nazar solarkan, armonli bu dunyoda kimga yaxshilik qildim-u kimning ko'nglini ranjitib qo'ydim, deya xayol suradi.

Dunyoda faqat ezgu ishlar qilib, yaxshi nom qoldirsam, deydi. Biroq, oramizda noo'rin ishlarga qo'l urayotgan insonlar ham topiladi. Buning oqibatida ular o'zlariga, qolaversa, atrofdagilarga, yaqinlariga jabr qilayotganliklarini bilisharmikan?

Bizning oramizda noqobil insonlarga joy yo'q.

Yaqinda qo'shaloq bayramni nishonlaymiz. Mustaqilligimizning o'n bir yilligini keng nishonlaymiz. Yangi o'quv yilini quvonch bilan kutib olamiz.

Mustaqil diyorumizning gullab yashnashida biz ham albatta o'z hissamizni qo'shamiz.

Bayraming muborak, aziz Vatanim!

Begoyim SODIQOVA,

*Andijon viloyati, Paxtaobod tumani, Madaniyat qishlog'i,
9- sinf o'quvchisi.*

KELISHIKNING MA'NOSI

O'zbek tili va adabiyoti fanini puxta o'rgangan o'quvchi bizning ona tilimizning so'z boyligi naqadar betakror ekanligiga amin bo'ladi. So'z turkumlari deysizmi, kelishigu tuslanishmi, barchasi til boyligidan dalolatdir. Ayniqsa, o'xshatish va mubolag'ali, ko'p ma'noli so'zlarni aytmaymiz. Men kelishik qo'shimchalarini o'zimcha qofiyaga soldim. Yozgan she'rimni ustozimga

ko'rsatgan edim, ularga ma'qul bo'ldi. Sinfodoshlarim ham «Kelishik» nomli she'rimni yodlab olishdi. Ularning tilidan quyidagi misralar tushmaydi:

Bosh kelishikning

Qo'shimchasi yo'q,

Menimcha uning

Juda qorni to'q.

Qaratqichni -ning,

O'rtog'iman beshning.

Tushumniki doim -ni,

Esda tutgin darsingni.

Chiroyli yoz daftarga,

Jo'nalish qo'shimchasi -ga.

O'rningdan turgin shu payt,

Seni kutar o'rin-payt.

Darsdan chiqgach uyga qayt,

Chiqish kelishigin ayt.

Sarvinoz MUSTAFOYEVA,

Navoiy shahridagi

15-o'rta maktabning

7- «A» sinf o'quvchisi.

MAHALLA OROMGOHI

Yoz oylarida bolalar ta'tilni maroqli o'tkazish uchun turli dam olish maskanlariga, oromgohlarga boradilar. Biz esa ta'tilni uyimizda o'tkazdik. Shunda ham hecham zerikmadik. Nimaga deysizmi? Chunki biz har bir kunimizni qanday qilib maroqli o'tkazishni rejalashtirib oldik. Turli bellashuvlar, sport o'yinlariga doir musobaqalar, konsert va tomoshalar uyushtirib, ularga boshqa mahalla bolalarini ham taklif qildik. Mahallamizning ko'rinarli yeriga «Falon kuni, falon musobaqa yoki tomosha bo'ladi» deb e'lon osib qo'yamiz. Qo'shni mahalla bolalariga esa taklifnomalar berib chiqamiz. Qarabsizki, hammayoq tomoshabinlarga to'lib ketadi. So'ngra o'zimiz qurgan qo'lbola sahnaga tanlov ishtirokchilari birma-bir chiqib, o'z iste'dodlarini namoyish qiladilar. Buvijonlaru tengdoshlarimizdan iborat tomoshabinlar dasturlarimizni tomosha qilib, mahoratimizga baho beradilar. Bundan ruhlanib har safar yangi-yangi bellashuvlar o'tkazishga, tadbirlarimizni yanada qiziqarliroq qilishga harakat qilyapmiz. Bunday o'yinlar bizni yanada birlashtiradi va do'stlarimiz safini kengaytiradi.

Yaqinda meni «Quvnoq shaharcha» teleo'yiniga taklif qilishgandi. U yerga dugonalarim meni qo'llab-quvvatlash uchun borishdi. Do'stlarimning olqishlari menga dalda bo'ldimi, bu o'yinda g'oliblikni qo'lga kiritdim. Jonajon dugonalarimning samimiy, do'stona munosabatlaridan xursand bo'lib ketdim.

Men barcha mahalladoshlarimga, maktabdoshlarimga, tengdoshlarimga yangi o'quv yilida omad hamisha yor bo'lishini tilab qolaman.

*Dilafruz USMONOVA,
Poytaxtimizdagi 169 - maktabning
6 - «V» sinf o'quvchisi.*

**BOBOMNING
ULUSHI BOR**

Har yili Istiqlol bayrami arafasida Mustaqillik maydonimiz yanada ko'rkamlashib, chiroyli bo'lib ketadi. Ayniqsa, turli rangdagi chiroqlarning navbatma-navbat yonib o'chishi, har xil manzaralarni aks ettirishi kishining zavqini keltiradi. Har gal bu manzarani tomosha qilib, dilimda allanechuk faxr-iftihor tuyg'ulari jo'sh urib ketadi. Chunki bosh maydonimizdagi go'zallikni barpo qilishda bobojonim Rixsitilla xoji ota Ubaydullayevning ham hissalar bor. 79 yoshni qarshilagan bobojonim uzoq yillardan beri «Toshshaharnur» birlashmasida mehnat qilib keladilar.



Uylarimizni, ko'chalarimizni charog'on qilib, yo'limizni yoritib turgan chiroqlarga bo'qib, bobojonimning mehnatlarini his qilaman.

Bu yil Mustaqillik maydonini bobomning shogirdlari - «Toshshaharnur» birlashmasining «Maxsus yoritgich boshqarmasi» bo'limining Alisher, Ravshan, Sobir, Botir ismli ishchilari bezatishmoqda. Bobojonim yaqinda u yerda bo'lib, xursand bo'lib qaytdilar. «Xudo xohlasa, bayramimiz juda chiroyli o'tadi» dedilar shogirdlarining ishlaridan mamnun bo'lib.

Men shunday ajoyib, mehribon, ziyo ulashuvchi bobojonim borligidan faxrlanaman.

*Malika ABDUVOHIDOVA,
Toshkent shahar, Yunusobod tumanidagi
12 - maktabning 8 - «A» sinf o'quvchisi.*

**ORZU-NIYATLARIM
KO'P**

Oynayi jahon orqali chet davlatlarda ta'lim olayotgan O'zbekiston yoshlarini ko'rganda quvonib ketaman. Mustaqilligimiz sharofati bilan jahonning nufuzli oliygohlarida o'qib, o'z bilim va malakalarini oshirishga intilayotgan yoshlar oramizda juda ko'p. AQSH, Fransiya, Yaponiya, Germaniya kabi rivojlangan davlatlarda ko'plab yoshlar tahsil olmoqdalar. Yaqinda Prezidentimiz I.A.Karimov Yaponiyaga uyushtirgan safarlari davomida «Naigata» oliygohida tahsil olayotgan yoshlar bilan suhbat o'tkazib, yana bir bor



quvondilar. Mamlakatimizda yaratib berilayotgan shart-sharoitlar, yoshlarga

bo'lgan e'tibor bizni yanada quvontiradi.

Mana, maktab boshlanishiga ham oz vaqt qoldi. Mehribon ustozlarim, sinfdoshlarimni juda sog'indim. Men maktabda o'z bilim va malakalarimni oshirib, kelajakda shu Vatanim uchun

xizmat qiluvchi yetuk inson va ota-onamga munosib farzand bo'lishga harakat qilaman. Buning uchun tinmay o'qishim, ta'lim olishim lozim. Orzuniyatlarim juda ko'p. Mehribon ustozlarim o'gitlari kelajak hayotimda menga asqotishiga ishonaman.

Aziz tengdoshim! Biz O'zbekistonning ko'rar ko'zi, kelajagimiz. Vatanimiz ravnaqi biz - yosh avlod qo'lida. Xalqimiz, yurtboshimiz, ota-onamiz bizga ishonch ko'zi bilan boqmoqda.

**Bizga ishongan ko'zlar,
Ishonchini oqlaylik.
O'zbekiston dong'ini
Dunyoga tarataylik.**

*Malohat TO'XTAYEVA,
Toshkent shahar,
A. Ikromov tumanidagi
116 - maktabning
8 - «B» sinf o'quvchisi.*



Sachiyo SEYA xonim.
*Yaponiya elchixonasining
madaniyat ishlari bo'yicha
atashesi.*

Bugungi suhbatdoshimiz
Yaponiya elchixonasining
madaniyat ishlari bo'yicha
atashesi Sachiyo SEYA xonimdir.
Ulardan Yaponiyadagi bolalar
ta'limi, bolalar nashrlari, sevimli
mashg'ulotlari haqida so'radik:

YAPONIYA BOSHLANG'ICH TA'LIMIGA 100 YIL

-Zamonaviy yapon boshlang'ich ta'limi bir asr muqaddam vujudga keldi,- deb suhbatni boshladi Sachiyo xonim, -XIX asrning ikkinchi yarmidan Yaponiya g'arbga taalluqli bo'lmagan holda modernizatsiyalash jarayonini boshlab yuborgan birinchi davlatlardan biri bo'ldi. Yaponiya ta'lim uslubi g'arb modeliga suyangan holda vujudga kelgan bo'lsa-da, biroq, hech bir davlat uslubidan nusxa olmagan. Aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, yaponcha uslub g'arborna tajribaga yo'g'rildi.

Yaponiyadagi boshlang'ich ta'lim boshqa davlatlar singari uzoq tarixga ega. XV asrgacha buddiylar saroyida aristokrat va samuraylarning farzandlari tahsil olardi. Keyinchalik tijorat rivojlangani bois, savdogarlar ham o'z bolalarini maktablarga bera boshladilar. Ularga o'qish, yozish va hisobdan saboq o'tilardi. Shu yo'sinda mashhur «tenaray-dzyuku» yoki «terakoya» maktablari

paydo bo'ldi.

Boshlang'ich maktabni tarbiyaning o'chog'i deb bilgan hukumat maktab qurilishiga katta mablag' ajratdi. 1875 yilda 25 000 ta maktab bolalar uchun xizmat qilardi (bugungi kundagi maktablar soni ham taxminan shuncha). Boshlang'ich ta'limning bunday tez sur'atlar bilan rivojlanishi Edo davri (1603-1868)ga to'g'ri keladi. U davrda Yaponiyada moddiy masalaning tangligi bois bolalarning birdek ta'lim olishi mushkulroq edi. 1915 yilga kelib maktab ro'yxatiga olingan 90 foiz o'quvchilarning bari kunda maktabga keladigan bo'ldi.

Bugungi kun boshlang'ich ta'limiga 1900 yil qabul qilingan Dekret asos bo'ldi. Boshlang'ich ta'lim to'rt yillik o'qishdan olti yillikka uzaytirildi.

Milliy g'urur, vatanparvarlik ruhida tarbiyalashni maqsad qilgan tuzum jamiyat qiziqishlarini ham e'tibordan



Yapon bayramlari

- 1 yanvar - Yangi yil,
- yanvarning ikkinchi dushanbasi - balog'at yoshi kuni,
- 11 fevral - Yapon davlatining tashkil topgan kuni,
- 21 mart - bahorgi tengkunlik,
- 29 aprel - yashillik bayrami,
- 3 may - Konstitutsiya kuni,
- 5 may - Bolalar kuni,
- 20 iyul - Dengiz kuni,
- 15 sentabr - Qariyalarni qadrlash kuni,
- 23 sentabr - kuzgi tengkunlik,
- oktabrning ikkinchi dushanbasi - sport va sog'lik bayrami,
- 3 noyabr - Madaniyat kuni,
- 23 noyabr - Mehnatga minnatdorlik kuni,
- 23 dekabr - Imperatorning tug'ilgan kuni.

chetda qoldirmadi. Ta'lim, madaniyat, sport, fan va texnologiya vazirligi o'qituvchini ishga qabul qiladi va nazorat qiladi.

Yaponiya o'z kelajagi uchun yangi uslublarni qo'llamoqda, ya'ni boshlang'ich maktablarda xorij tillari, xalqaro tarmog' - Internetga ulanish uchun kompyuter saboqlari o'tiladi. Maktab binolari bolalar tabiat qo'ynida ko'proq dam olishlari va o'ynashlari uchun qaytadan qurilmoqda.

-Bizda yosh sportchilar juda ko'p,- deb suhbatni davom ettirdilar Sachiyo xonim. -Stol tennisi bo'yicha bir necha marotaba yutuqlarni qo'lga kiritgan 10 yoshli qizaloq Ay, suzishdan jahonga taniqli chempion 17 yoshli qiz Ayko va boshqalar ro'yxatini soatlab davom ettirish mumkin. Bizda sportga, umuman bo'sh vaqtni unumli o'tkazishga katta e'tibor beriladi. Shundagina yirik, qudratli davlat maqomini saqlab qolamiz, uni yanada rivojlanishiga salmoqli hissa qo'shamiz, deb o'ylayman.


-Yoshlarni o'ylantiradigan muammolar ham bormi?

-Hozir yoshlarni tashvishga solayotgan bir masala bor. U ham bo'lsa o'z kelajagini o'ylash. Avvallari oliy o'quv yurtlari, kollejlar kelgusida ish bilan ta'minlanish kafolati bilan o'qitardi. Bugungi kunda esa ilmgohlar bunday kafolatdan mustasno. Shuning uchun ham yoshlar o'zlari qiziqqan, biroq kelajakda ish topa oladigan joyga kirib o'qishlari lozim bo'lyapti. Ish topish muammosi haligacha yechilgani yo'q.


-O'zbekistonlik bolalar bilan yaponiyalik bolalar o'rtasida biror bir aloqa o'rnatilganmi?

-Ha, albatta. Toshkentdagi san'at maktabi Gumma tarkibidagi maktab bilan xat orqali muloqot olib boradilar. Ular o'zaro ko'rgazmalar, rasmlar almashadilar. Kelgusida o'quvchilar almashinishi ham kutilmoqda. Shu o'rinda o'zbekistonlik iqtidorli o'quvchilarga ana shunday ishtiyoq bilan yonishlarini, izlagan narsalarini albatta topib, hayotda o'z o'rnlariga ega bo'lishlariga tilakdoshman.


-Suhbatingiz uchun tashakkur.



Yapon o'quvchilari maktabga ana shunday sariq qalpoqcha kiyib boradilar. Maktab avtobusi haydovchisi uchun bu sariq qalpoqlilar darrov ko'zga tashlanadi.



Xona oyoq kiyimlari ana shu tartibda taxlanib turadi. O'quvchilar maktabga kelgandan keyin ko'chalik poyafzalni yechib, maktabnikiga almashtiradilar. Barchasi bir xil bo'lganligi bois, shippak orqasiga o'z ismlari yoziladi.



Bir yilda bir marotaba tibbiyot ko'rigidan o'tadigan o'quvchilarning sog'ligi, bo'yi, vazni, ko'zi, qulog'i obdon tekshiriladi.



Tabiat qo'ynida.



O'quvchi ryukzaki ichida nimalar bo'lishi mumkin?

KEYMEY BOSHLANG'ICH MAKTABI

Tokio shahrining markazidan g'arb tomonida joylashgan Keymey boshlang'ich maktabiga 75 yil muqaddam asos solingan bo'lib, unda 300 dan ortiq o'quvchilar ta'lim oladi. Dars tongda 8.30 da boshlanib, olti soatli jadvaldan so'ng kunduzi 3.45 da tugaydi. Keyin o'quvchilar sinfdan tashqari tadbirlar, ozodalik soatlari, tushlik, qo'mita majlislari, klub ishlari va boshqalarni o'tkazadilar. Maktab hayoti, uning kun tartibi bir-biridan qiziqarli. Quyidagi suratlar misolida mushtariylar maktab bilan yaqindan tanishishi va o'rganishi mumkin.



Oltinchi sinf o'quvchilari Gumma tarkibidagi Karuidzava muzeyida uch kunlik o'qishda bo'ladilar. U yerda Yaponiya tarixi bilan yaqindan tanishib, gugurtsiz gulxan yoqish sirlaridan voqif bo'ladilar.



Darsdan so'ng mahalliy politsiyachilar yo'l harakati xavfsizligi mashg'ulotini o'tadilar. Velosipedni saqlash va ta'mirlashni ham o'rgatadilar.



Yil davomida o'tilgan sport mashg'ulotlari bo'yicha turli musobaqalar uyushtirishadi.



Kutubxonada.



6 - sinfni bitiruv kechasida maktab qo'shig'i sadosi ostida har bir o'quvchiga boshlang'ich sinfni tugatganligi haqida shahodatnoma topshiriladi.

Muharrama PIRMATOVA
suhbatlashdi.

QOVOQVOYNING

(2 pardali, 7 ko'rinishli ertak. Yangi varianti.)

*(Davomi. Boshi o'tgan sonda.)***Tarvuz:**

Men-chi dalada
ishlab,
Yuribman toyday
kishnab.

Qovoqvoy:*(Kerilib.)*

Men uchratdim
Sehrgar,
Nima istasam agar —
Qila olamiz shuni,
Uchrashamiz har kuni.
Chanoqvoy quloq solgin,
Mendan-chi, o'rnak olgin.
Rostini aytsam senga, —
Karra jadvalni menga.
Ko'nglim ochildi gulday,
O'rgatib qo'ydi talay.
Men shoir
bo'lmoqchiman,
Bor emish menda
chidam.
She'r to'qiyman bir
zumda,
Hatto tushda,
uyqumda.
Yuribsanlar
bo'shashib,
Ishlaringdan adashib.

G'ujumoy:

Gaping rostmi,
Qovoqvoy,
Maqtanarsan,
hoynahoy?!

Qovoqvoy:

Ishonmasang so'rab
ko'r,
Bilarsan kim ekan zo'r!

Qovunjon:

Yettita ikki qancha?
*(Qovoqvoy ancha
vaqt o'ylab qoladi,
bolalardan borib
so'raydi.)*

Tarvuz:

Yettita ikki — ancha.
(Boshqalar kulishadi.)

Qovoqvoy:

*(Ko'zini yumib olib
esnaydi.)*

Terak shoxi bo'lar mo'rt,
Yettita ikki - o'n to'rt.

Topish bo'ladi bundoq,
Bilib qo'y, Tarvuz o'rtoq.

Chanoqvoy:

Ey, qoyil-ku, ey qoyil,
O'rganibsan astoydil.

Qovoqvoy:

Eshitib tur, ey Tarvuz,
Uch karra uch, bu — to'qqiz.

*(Yana bolalardan
so'raydi. Ular
«To'g'ri-to'g'ri»
deyishadi.)*

To'g'ri, to'g'ri, ha,
to'g'ri,

Uni topmagan
o'g'ri.

H a m m a n g
haqingda bir-bir,

She'rlar to'qiyman
hozir.

Seni deydilar Qovun,
Sendan yasalar sovun.

Ey, Tarvuzim, ey Tarvuz,
Yumalaysan betormoz.

Ey, G'ujumoy, ey G'ujum,
Qilgin menga tabassum.

Ho'v, yumaloq Handalak,
Beqasam kiygan chelak.

Chanoqvoy:*(Chetga qarab.)*

Buni o'zi to'qibdi,
Darsni durust o'qibdi.

Qilsa agar hafsula,
Unda ham ishlar kalla.

Qovoqvoy:

Toshlik joyda
yugurma,

To'rt karra besh —
yigirma.

Do'stlar aytgan gapga
ko'n,

Ikkita besh bo'lar
o'n.

Hamma:

Qoyil, qoyil
Qovoqvoy,

Kallang bo'pti ancha
boy.

Qovoqvoy:

Menga qo'ygan —

talay shart

Bajaryapman, bo'lib mard.

(Keriladi.)

Sehrgar kuchli juda.

Chanoqvoy:

Bu gaplaring behuda.

Qovoqvoy:

Uchrashirsam, Chanoqvoy,
Sen bo'lasan o'sal-loy.

Chanoqvoy:

Ahvolingga kulaman,

Senga hayron bo'laman.

Ishonmayman hali ham,

Sehrgar mendan

kuchsiz.

So'zing

bemaza —
tuzsiz,

Berolmas senga yordam!

Qovoqvoy:

Qo'lini-chi, Sehrgar

Shunday silkitsa agar,

Paxta bo'ladi xirmon.

Chanoqvoy:

Barcha gaping g'irt yolg'on.

Qovoqvoy:

Qo'lini shundoq qilar,

Hasharotlar qirilar.

Chanoqvoy:

G'alatirog'-a so'zing,

Laqma ekansan o'zing.

Vahma gapni qilgin
bas,

Bundayin ish
qilolmas!

Ko'rsatib bo'psan,

Qovoq,

So'zlaring yolg'on,
chatoq.

Kelmoqchi edi
qachon?

Qovoqvoy:

Bugun otganida
tong.

Chanoqvoy:

D e m a k
g a p l a r i

yolg'on!

Qovoqvoy:

Men uchratdim, gapim rost,
Har gapimga bor asos,

Yoki kelar ertalab.

Chanoqvoy:

Sehrgar — bu yolg'on gap,
Qovoqvoyning boshi xom,

U kelmaydi, gap tamom.

Qovoqvoy:

Keladi u.

Chanoqvoy:

Kelmaydi,

Unchalik ketma katta.

Qovoqvoy:

U keladi, albatta!

*(Yig'laydi.)***Chanoqvoy:**

Kelsa kelar, ha mayli.

Qovoqvoy:

Tongda kelar, poylayman.

Chanoqvoy:

Kelmaydi, bahs boylayman,
Baribir men yutaman.

Qovoqvoy:

Va'da bergan, kutaman.

Qovunjon:

Shartimiz shu, kelmasa —

Bo'lmay sen ham dangasa,

Hasharot terish uchun.

Chanoqvoy:

Ikki karra besh-chi, o'n!

Do'stlar aytgan gapga ko'n.

Qovoqvoy:

Sehrgar aytgan buni,

Soz ekanmi mazmuni?

Chanoqvoy:

Aytgan bo'lsa aytgandir,

Bahs boylashdik biz, axir.

Qovoqvoy:

Ishga chiqqanim bo'lsin,

Menga sehrgar kelsin.

Hasharotdan qo'rqmayman,

Uni tirik qo'ymayman.

Paxtazorga kiraman,

Ko'ringanin qiraman.

Tarvuz:

Qovoq, Qovoq xom Qovoq,


Turgan bitganing tovoq.

Qovoqvoy:

Kim Qovoq?

Tarvuz:

Sensan Qovoq.





SARGUZASHTI

Po'lat MO'MIN

Qovoqvoy:
Sen-chi Tarvuz.
Tarvuz:
Ha, men Tarvuz.
Qovoqvoy:
Bolalar, men Qovoqman-a?
Sizlarga chin o'rtoqman-a?
Sen qo'zivoq Tarvuzsan,
To'xtamas, betormozsan.
Tarvuz:
Sen tomosha Qovoqsan.
Qovoqvoy:
Dori yegan Tarvuzsan.
Tarvuz:
Sen-chi sapcha Qovoqsan.
Qovoqvoy:
Sen tuzlangan Tarvuzsan.
Tarvuz:
Sen-chi, oyim Qovoqsan
Ya'ni doim Qovoqsan.
Kuchimiz sinashamiz,
Kel, boksga tushamiz!
(Boksga shaylanadi, boks
qo'lqopini topib kelishadi.)
Qovoqvoy:
Suvingni chiqaraman!
Tarvuz:
Urug'ing chiqaraman!
(O'yin boshidayoq Tarvuz
uning chakagiga solib
qoladi.)
Qovoqvoy:
Voy, chakagim, voy-voy,
Urish yo'q-da to'satdan,
Bu hisobmas, boshqatdan.
G'ujumoy:
To'g'ri aytar Qovoqvoy.
(Yana tushadilar, Qovoqvoy
yengilay deganda sahnadan
Chigirtkalar, Ko'sak qurtlari
chopib o'tishadi. Hamma
shoshib qoladi. Shu paytda
G'ujumoy Dehqon boboni
suyab sahnaga olib kiradi. U
gapirolmaydi.)
Chanoqvoy:
Nima qildi bobojon?
G'ujumoy:
Hollari ancha yomon.
Dehqon bobo:
(Zo'rg'a.)
Uch-to'rttasi kelib zo'r,
Ustimga tashladi to'r.

Olishdim anchagina.
Qovoqvoy:
U-chi, O'rgimchakkana!
G'ujumoy:
Sen bilasan qayoqdan?
Chanoqvoy:
Gap olasan Qovoqdan.
(Dehqon bobo holdan keta
boshlaydi. Shprints o'qatgan
Lavlagijon va Oysholg'omlar
Ko'sak qurti va Chigirtkani
quvib o'tishadi.)
Oysholg'om:
Qochma, qochma
go'rso'xta.
Lavlagijon:
Qo'ymaymiz,
qochma, to'xta!
(Ular bu
yerdagilarni ko'rib
to'xtashadi,
hasharotlar
qochib ketadilar.
Oysholg'om va
Lavlagijon Dehqon boboga
yordam berishadi.)
Oysholg'om:
Bu holda bo'lmas axir,
Kasalxonaga hozir —
Avaylab eltish kerak.
G'ujumoy:
Hollari og'ir demak,
Endi nima qilamiz?
Oysholg'om:
Tezda davo qilamiz.
(Dehqon boboni olib
ketishadi. Faqat Tarvuz
bilan Qovoqvoy qoladi.)
Tarvuz:
(G'ayratga kirib.)
Qovoq do'stim, qani, ha,
Ushlaymiz, barin, olg'a!
Qovoqvoy:
(Qo'liga qarasa —
qo'lqop.)
Qovoqvoy, sen ham ol, ha,
Orqada qolma, olg'a!
Yovuzni axtaraman,
Bir urib ag'daraman!
Yoramanda jag'ini,
Chiqaray abjag'ini.
(Qo'lini ko'taradi, chopib
chiqib ketadi.)
(PARDA).

BESHINCHI KO'RINISH

(1-ko'rinishdagi manzara.
Erta tong. Tarvuz, G'ujumoy,
Handalak, Chanoqvoy,
Qovunlar o'tirishibdi.)

Tarvuz:
Ishga ancha kech qoldik,
Qani tezroq yo'l oldik.
Hasharotni uyquda —
Ushlash qulaydir juda.

G'ujumoy:
Qovoqni tutish
kerak,
Yaxshimas tashlab
ketsak.
Sehrgar cholni axir
Men ham ko'rib
qo'yay bir, —
Deya o'ylab
yurardim.
Undan madad
so'rardim.

Chanoqvoy:
Sehrgardan G'ujum ham,
So'ramoqchi-ya yordam?

Tarvuz:
Men so'rardim bir ishni:
Ya'ni ozroq ozishni.

G'ujumoy:
Ishonmaymiz-ku ammo...

Chanoqvoy:
Gaplaringiz bema'no,
Nimalar bo'ldi sizga,
Ishoning aqlingizga.
Qovoqqa o'xshab tag'in —
Ayta qolay ochig'in —
Yurmangiz bo'lib izza,
Kuyinib, bo'lib jizza.
(Chanoqvoy
gapiroyotganda Qovoqvoy
shoshib-pishib ko'zini
ishqalab kirib keladi.)

Qovoqvoy:
Sehrgarim keldimi?
U bir nima dedimi?
Xuddi uning tovushi
Eshitildi quloqqa.

Chanoqvoy:
Sehrgarda es-hushi.

Qovoqvoy:
Ketib qoldi qayoqqa?

Chanoqvoy:
Hech kim kelmadi, o'rtoq,



Avvalo salom,
Qovoq!
Qovoqvoy:
Uning gapini hozir
Eshitib qoldim axir.
Senlardan
cho'chidimi?
Sehr qilib uchdimi?
(Uyoq-buyoqqa
yugurib qaraydi,
qidiradi.)
Chanoqvoy:
Bo'lma buncha jonsarak,
Sehrgardan yo'q darak.
Qovoqvoy:
Sehrgar ovozigga
Ovozing o'xsharkan
sal.
Chanoqvoy:
Qarang-a davosiga,
Bo'lmaydi sira o'sal,
—
Qovoqvoy yutqazsa
ham.
Tarvuz:
Rosa qilmoqda alam.
(Shu orada G'ujumoy,
Tarvuz chiqib
ketishadi.)
Chanoqvoy:
Qilsang badantarbiya,
Yaxshi ishlaydi miya.
Qovoqvoy:
Shuning uchun
albatta,
Kirib qoldim
g'ayratga.
(Har xil harakatlar
qilib hammayoqqa
yuguradi. Shu paytda
Tarvuz, G'ujumoy kelib
qolishadi.)
Tarvuz:
Kuchli bo'lsang
agarda,
Boksga tush bir
marta.

(Davomi bor.)

ABADYAT ARDOQLAGAN ALLOMALAR

Ushbu ruknni Rustam OBID olib boradi

tanishar ekansiz, u o'quvchini qahramonni yaxshi ko'rib qolishga zo'r berib undayotganini yaqqol sezasiz. Kepler o'quvchiga yoqishni juda-juda xohlayotgani ochiq-oydin ko'rinib turibdi. Hatto o'zini yerga urib, balchiqqa qorishtirib tashlashlari ham pirovard natijada shu qadar ochiq

yo kelgusi avlodlarmi, menga baribir. O'zining ijod namunalari munosib baholovchi mavjudotni tabiatning o'zi minglab yillar

Buyuk kishilar olmos yanglig' noyob va shu qadar serjilodir.
Sharq naqli

SAYYORALAR SARDORI

ko'ngilligi

uchun o'quvchi mehrini qozonishga qaratilgan. Mana bu jummalarga bir diqqat qiling-a: «Behuda o'tgan ozgina vaqt ham unga azob beradi. Ayni paytda u o'zini ko'pchilikdan olib qochadigan odamovi ham emas mutlaqo. Pul masalasida deyarli xasis, tejamkorlikda qat'iyatli, mayda-chuydalarga, umuman, vaqtni besamar sovurishga olib keladigan hamma narsaga nisbatan murosasiz. Shunga qaramay, uning ishga bo'lgan nafrati shu qadar kuchliki, aksari hollarda ilm olishga bo'lgan intilish tuyg'usigina uni boshlab qo'ygan narsalarini tashlab ketishdan saqlab qoladi. Lekin, har qalay, u intilayotgan narsa go'zaldir va ko'p hollarda u haqiqatni anglab yetishga muvaffaq bo'lgan».



BEQIYOS INSON

Biroq, o'zaro zarracha mos kelmaydigan ziddiyatlarga nechog'li to'liq bo'lmasin, bu odam baribir, har qanday buyuk inson singari haqiqatni noziklik bilan his etadi, uning tug'ilish lahzasini aniq topadi, o'z faoliyatiga kutilmagan va uzil-kesil baho berishda yanglishmaydi. «Men vazifamni bajardim, - deb yozadi u uchinchi qonunni kashfetganidan keyin. - Yozgan kitobimni zamondoshlarim o'qiydimi

kutgan, men ham kuta qolaman».

Kalugadagi Davlat kosmonavtika muzeyining bir devorini Iogann Keplerning tasviri bezab turibdi. Jodugarlar gulxanda yoqilgan bir davrda buyuk bashoratchi: «Osmon shamollariga moslashtirilgan yelkanli kemalar qurilishiga va hatto sayyoralararo fazo bo'shliqlaridan ham qo'rqmaydigan kishilar topilishiga ishonaman», deb yozgan edi.

Keplerni «beqiyos inson» deb atagan Albert Eynshteyn uning taqdiri haqida shunday satrlarni bitgan: «U tabiatdagi barcha hodisalar uchun qandaydir umumiy qonuniyatlar mavjudligiga hech qanday ishonch bo'lmagan bir davrda yashab o'tdi. Bunday qonuniyat borligiga ishonchi shu qadar kuchli ekanki, uni hech kim qo'llab-quvvatlamagani va tushunmagani holda bu sohada yolg'iz o'zi tadqiqot olib bordi. Sayyoralar harakatini va bu harakatning matematik qonuniyatlarini empirik asosda o'nlab yillar mobaynida sinchiklab o'rganishdek mashaqqatli mehnat uchun shu ishonchdan kuch topa bildi».

Ushbu ilmiy jasorat allaqachonlar amalga oshirib bo'lingan hozirgi kunda bu qonunlarni kashf etish va shu qadar aniq ifodalab berish uchun qanchalik ixtirochilik qobiliyati, qanchalik og'ir mehnat hamda cho'ng sabr-toqat zarur bo'lganini hech kim to'liq baholay olmaydi.

O'rta asrlar zulmati bilan endigina tug'ilib kelayotgan klassik astronomiya, matematika va fizikaning yorug' kuchlari balki aynan Iogann Kepler taqdirida har qachongidan yaqin, baqamti kelib, sassiz-sadosiz olishuvga, ko'rinmas jangga kirishgandir? Ehtimol, bu ulug' daho zulmat va yorug'lik saltanatlarining aynan sarhadida turgani uchun ham hayotining soyalari shu qadar tim qora ko'rinar...

(Oxiri. Boshi o'tgan sonlarda.)

Keyin birdan o'zini maqtashga o'tib ketadi: «Bahs-

Bilimim shu yerga yetib keldikim, Bilimsizligimni endi tushundim.

Abu Shukur Balxiy

munozaralarda muxolif sifatida so'zga chiqar ekan, faqat o'ylab turgan gaplarinigina ochiqchasiga aytadi. Kashfiyotlarini tavsiflar ekan, qoralama nusxasiga nisbatan oq nusxaga hamisha biron yangilik kiritadi. Boshqa ilmiy mashg'ulotlariga nisbatan matematikani ortiqroq sevadi». Shundan so'ng o'zining o'sha paytlarda hali unchalik ko'p bo'lmagan ilmiy xizmatlarining barchasini birma-bir sanab o'tadi. Yana bir necha sahifadan keyin esa... o'zini itga tenglashtiradi, tana tuzilishi, doimo ochligi, xushomad bilan dumini likillatishi va hatto qopag'onlikda ham poyloqchi itning xuddi o'zi deya ta'kidlaydi.

Zoyichanomada nimaiki deyilmasin, har biri o'ziga xos savolga aylanib ketgan. Masalan, «... harbiy xizmatga borish taqdirida bo'lsa... jasurligini namoyish qiladi...» deb yozadi. Va ketma-ket: «Xavf-xatarga to'la bu hayotda jasurlik ko'rsatish unga yot tuyg'u» deb qo'shib qo'yadi. O'zini «qahrli, ayyor, hushyor» deb ta'riflaydi. Keyingi sahifada esa «kamtarligi, xudodan qo'rqishi, sodiqligi, halolligi va nazokatligi» haqida yozadi.

Kepler o'zi haqida «ayyorlik, aldov va yolg'onga mukkasidan ketgan» deb yozadi va darrov «bag'oyat xudojo'y», «taqvoda bid'atgacha boradi», deb qo'shib qo'yadi. Xullas, bu xil oqlovlar yana va yana kelaveradi, hech oxiri ko'rinmaydi. Xo'sh, u kimning oldida o'zini oqlayapti? Mayda gap va hasadgo'y zamondoshlari oldidami? Parvardigor oldidami? Balki bizning — avlodlarning nazarida o'zini oqlamoqchidir? «Unga xos bo'lgan do'stona xayrixohlikni aqli noqislik deb bilishadi, muloyimligini haddan ziyod soddalikka, taqvodorligini — bid'atga moyillikka, quvnoqligini — ahmoqlikka, haqqoniy g'azabini — quturish xurujiga yo'yishadi».

Keplerning zoyichanomasi bilan

Bundan ikki yil oldin dadajonim menga bir kuchukcha olib kelib bergandilar. Uning nomini Yo'lbars deb atadik. Oradan ikki yil o'tib, Yo'lbars katta itga aylandi. Endi uni

zanjir lab
qo'ymasak,
kelgan
odamlarni

YO'LBARS

qo'rqitib yuborardi. Bir kuni dugonalarim bilan birga dam olishga chiqadigan bo'ldik. Oyim: -Yo'lbarsni ham olib ket, ketingdan ergashib kuni bilan g'ingshiyveradi,-dedilar. Biz uni ham birga olib ketdik. Xullas, qizlar bilan keng dalada mazza qilib o'ynadik. Keyin dam olish uchun bir daraxtning tagiga cho'zildik. Qattiq charchaganim uchunmi, ko'zim ilinib, uyquga ketibman. Shu vaqt Yo'lbarsning

qattiq vovullashidan uyg'onib ketdim. U jon-jahdi bilan o'tlari quriy boshlagan joyni qattiq timdalardi. Biz gap nimadaligini bila olmay, bir-birimizga qarardik. Unga yaqinlashmoqchi

bo'lsak, qattiq
irillardi. O'tlar
orasida nima
borligi

hammamizni qiziqtirardi. Yo'lbars anchadan keyin jim bo'lib qoldi va mening oyoqlarimga kelib suykala boshladi. Uning panjalari, tumshug'ida qon yuqi bor edi...

Biz qo'rqa-pisa u timdalagan yerga bordik. Ne ko'z bilan ko'raylikki, u yerda qonga belangan ilonning chalajon dumi hali ham qimirlab turardi.

Yo'lbars uni belidan cho'rt uzib yuborgandi...

Uyga kelgach, bo'lgan voqeani oyim bilan dadamga aytib berdim. Shunda ular: -Yo'lbars sizlarning hayotingizni saqlab qolibdi-
da,-deyishdi.

Bu gapni
Yo'lbars
xuddi
tushun-
gandek u
yoqdan-
bu yoqqa
mamnun
sakrardi.



*Madina SAIDMUROTOVA,
Parkent tumanidagi 35 - o'rta
maktabning 5-sinf o'quvchisi.*

Mening Sayyora ismli eng yaqin dugonam bor edi. Deyarli birinchi sinfdan birga yurardik.

Maktabda hamma bizga havas bilan qarardi. Hatto darslarni ham birga tayyorlab, bir kunda javob berardik. Bunga ustozlarimiz ham ko'nikib qolishgandi. Nima bo'ldiyu biz u bilan urushib qoldik. Do'stligimizga putur

y e t i b ,
ikkimizning ham
ko'nglimiz
vayron bo'ldi. U
bilan qanday

qilib urushib qolganim, bunga esa arzimas narsa sabab bo'lganini o'ylasam, ichimni allanima tirnagandek bo'laveradi...

Maktabni bitirish arafasida edik. Biz 9-sinfmiz, hammaning ko'zi bizlarda edi. Men Sayyora bilan bitiruv kechasiga bir xil ko'ylak tiktrib, hatto fasonini ham bir xil qildirmoqchi bo'ldim. Sayyoraning juda nozik didi bor edi, unga hamma narsa ham

Yunlardan Bir kun

yoqavermasdi. Ikkalamiz bozorga tushib, mato tanladik, uni tikuvchiga berdik. Bitiruv oqshomimizda ikkalamiz

BIR XIL KO'YLAKLAR

ko'ylaklarimizni kiyib chiqqanimizda hammani havasi keldi. Qizlar bizdan, ayniqsa Sayyoradan ko'zlarini olisholmasdi. U uzun sochlarini chiroyli qilib turmaklagan, did bilan pardoz ham qilgandi. To'g'risini aytsam, meni ham unga havasim kelib ketdi shu tobda. Bitiruv kechasi tugagach, bir sinfdoshimning uyiga yig'ildik. Biz Sayyora ikkimiz bir joyga o'tirdik. Nima bo'ldiyu qo'limdagi ichimlik

uning ustiga to'kilib ketdi. Sayyora shaxd bilan o'rnidan turib ketdi-da, menga ko'zlarini

katta-katta qilib qarab qoldi. Men undan uzr so'radim, lekin qizlar hazillashib, meni ataylab qilganimni aytishdi. Sayyora hazilni ko'tarolmasdi, u qizlarning gapiga kirib, mendan qattiq xafa bo'ldi. Men

undan qanchalik uzr so'ramay, u meni kechirmadi. Mana, to'qqizinchi sinfni ham bitirdik, biz Sayyora

ikkalamiz hamshira bo'lamiz degan niyatda Chirchiq shahridagi bilim yurtiga hujjatlarimizni topshirgandik. Lekin u borib, hujjatlarini u yerdan olib ketibdi.

Men shunday chiroyli, xushmuomala dugonamdan ajrab qolganimdan juda pushaymon bo'ldim. U bilan yana avvalgidek dugona bo'lib qolishimizni istardim.

Dugonang HILOLA.

Sahifani Ozoda TURSUNBOYEVA tayyorladi.

Musiqa mening jonu dilim. Bizning oilamiz musiqaga katta qiziqish bilan qaraydi.

Akalarim doira chaladi, singillarim Remajon akardion, Nodira dutor, men esa fortepyano chalishni juda yaxshi ko'raman.

Oyim aytishlaricha: qo'shiqni faqatgina qalbi toza insonlar sevar



Yaqinda Moskva shahrida bo'lib, u yerdan katta taassurotlar bilan qaytdim.

ekan. Hatto oyimning o'zlari ham bizga doira chalib, qo'shiq aytib beradilar. Bobom, tog'alarim ham juda o'tkir musiqachi bo'lgan ekanlar. Umuman olganda, bizning

MUSIQAGA OSHNO

avlod- ajdodlarimiz qalbi musiqaga oshno bo'lib o'tgan.

Men shahrimizdagi 2- son bolalar musiqqa maktabining fortepyano bo'limi 4- sinf o'quvchisiman. Direktorimiz Islom Ollaberganov biz uchun barcha sharoitlarni yaratib berganlar.

Ayni kunlarda menga musiqqa chalishni ustozim Sveta Kim o'rgatib kelmoqdalar.

Singillarim ham men tahsil olayotgan musiqqa maktabida o'qishadi. Maktabimizda tez-tez tadbirlar, ko'rik tanlovlar bo'lib turadi. Ularda bolalarning barchasi faol ishtirok etadilar.

Yaqinda o'tkazilgan «O'zbekiston Vatanim manim» ko'rik tanlovining viloyat bosqichida men ham ishtirok

etdim va hokimlikning «Faxriy yorlig'i» bilan



mukofotlandim.

Ha, musiqani sevgan qalb yomonlardan, yomonliklardan uzoq yuradi. Ular doimo yaxshilarga, yaxshiliklarga yondoshadi. Men ham musiqaga oshno bo'lganimdan xursandman.

Farog'at JABBOROVA,
Xorazm viloyati, Urganch shahri.

Bo'sh vaqtim- xush vaqtim

MARKAZIMIZ BOLALARI

Men Qashqadaryo viloyatining Chiroqchi tumanidagi 160 - o'rta maktabning 6 - sinf o'quvchisiman. O'qishlarim yomon emas. Tarix, adabiyot va rasm darslarini yaxshi ko'raman.

Tumanimizda joylashgan «Bolalar va o'smirlar ijodkorlik markazi»dagi «Tasviriy san'at» to'garagi a'zosiman. Ayni ta'til kunlarida markazimiz bolalar bilan gavjum bo'ldi. Unda ko'plab to'garaklar tashkillangan.

Tumanimizdagi maktab o'quvchilari o'zlari



xohlagan to'garakka a'zo bo'lishlari mumkin. Buning uchun ularda qiziqish va albatta iqtidor bo'lsa bas.

Markazimizdagi ustozlarimiz o'ta talabchan, shu bilan birga mehribon hamdirlar. «Naqqoshlik», «Bichish-tikish», «Duradgorlik» va «Tasviriy san'at» kabi to'garak a'zolari tuman, viloyat va Respublika ko'rik- tanlovlarida ishtirok etib, g'oliblikni qo'lga kiritib kelyaptilar.

Men «Tasviriy san'at» to'garagiga a'zo man.

Ustozim Malika opa Nurimetova tasviriy san'atning nozik sirsinoatlarini o'rgatishda sira charchamaydilar.

Hozircha katta

tanlovlarda ishtirok etmadim. Hali ko'p izlanishim, o'rganishim kerakligini bilaman. Shunday bo'lsa-da sizlarning e'tiboringizga o'zimning chizgan rasmlarimni havola etayapman.

Xushnudbek KO'CHIMOV,
Chiroqchi tumani.

ORZULARI BIR OLAM

Kamola UBAYEVA Xabibulla qizi Toshkent shahar, Sobir Rahimov tumanidagi 249 - maktabning 9 - sinfida a'lo baholarga o'qib kelyapti. Shuningdek, mana ikki yildirki, gazetamiz qoshidagi «Istiqlol umidlari» to'garagiga muntazam qatnashib keladi.

Yosh bo'lsada, she'riy mashqlarida bir olam xayrat mujassam, hayajonu hissiyotlari chiroyli. Beg'ubor his-tuyg'ularga qorishiq she'riy sarflarining barchasida aniq, umidlarga yo'g'rilgan ishonch bor.

Nafaqat o'zbek tilida, balki ingliz tilida ham she'rlar, topishmoqlar mashq qilib, barchamizni xayratga solayotgan Kamoladan umidimiz katta. Sabot bilan mehnat qilsa, she'riyatning sirli olamida izlansa, uning nozik siru sinoatini o'zlashtira borsa, kelajakda ajoyib shoira bo'lib yetishishi tayin. Orzulari bir olam Kamolaxonning niyati ham shu: Zulfiyaxonimdek xalqimizning ardoqli, sevimli shoirasi bo'lish!

Iloyim shunday bo'lsin!

Feruza JALILOVA.

ONA TILIM

Navoiy sha'ningni etdi himoya,
«Hamsa» si egallab bo'lmas bir qoya,
So'zlaring boyligi bilmas nihoya,
O'zbek tilim - jonajon tilim.

«Yegani non ber!» - deb hajvchi Mahmur,
Uvaysiy chiston-la ayladi mashhur,
Qodiriy, Cho'lponga bo'lding sen g'urur,
Go'zallikka o'zing kon tilim.

Atoyi sehringni etdi namoyon,
Bobur dardlarini sen qilding bayon,
Nodira o'zligin ayladi ayon,
Tillar ichra bo'lding xon tilim.

Yoshing-la tenglasha ololmas chinor,
Ardoqlab, iqbolga bo'ldi ko'plar yor,
Xalqim o'tmishidan so'zlaysan ash'or -
Yana ko'p yillar bo'l omon tilim!

EZGU NIYATLAR

Eng ezgu niyatlar har bir yurakda,
Muhabbat jo bo'lmish qay bir tilakda,
Hatto qushlari mamnun falakda,
Endi hech ko'zingda ko'rinmasin yosh.

Ona yurt, ko'kingda porlasin quyosh!
Dillarda, ko'zlarda chaqnaydi otash,
Yurtboshim o'ylari qalblarga tutash,
Bizga farz farzandlik burchini o'tash -
Endi hech ko'zingda ko'rinmasin yosh.

Ona yurt, ko'kingda porlasin quyosh!
Seni chorlamoqda porloq kelajak,
Bundan-da yaxshiroq kunlar kulajak,
Ertangni munosib avlod qurajak,
Endi hech ko'zingda ko'rinmasin yosh.

Ona yurt, ko'kingda porlasin quyosh!
Sen tomon cho'zilgan do'stlaring qo'li,
Tanlaganing - Temur bobomning yo'li,
Chulg'ar o'ng-so'lingdan nurlarning
mo'li,
Endi hech ko'zingda ko'rinmasin yosh,
Ona yurt, ko'kingda porlasin quyosh!

Kamola UBAYEVA.

1. O'rtayer dengizida qanday orol bor?

- a) Tarif;
b) Krit;
c) Sumatra.

b) to'y mavsumi;

c) o'g'il bolalar.

2. Inson to'liq mustaqil bo'lishi uchun nimaning quli bo'lishi kerak?

- a) vijdon;
b) nafs;
c) qonun.

ARALASH

7. Jahonda qaysi familiya eng ko'p tarqalgan?

- a) Chang;
b) Smit;
c) Petrov.

3. Irlandiya ma'muriy-hududiy guruhlari qanday nomlanadi?

- a) okrug;
b) graflik;
c) shtat.

8. Braziliya pul birligi nima?

- a) dollar;
b) marka;
c) real.

4. Hozir jahonda nechta til mavjud?

- a) 5000 ta;
b) 3000 ta;
c) 9000 ta.

9. Yevropaga qora murch qayerdan kirib kelgan?

- a) Misrdan;
b) Iroqdan;
c) Hindistondan.

5. Qadimgi hind mifologiyasida xudolarning onasi kim?

- a) Gera;
b) Aditi;
c) Afrodita.

10. Quyidagi hayvonlarning qaysi biri yirtqichlar turkumiga kirmaydi?

- a) silovsin;
b) karkidon;
c) bo'rsiq.

6. Yaponlar 5 - mayda qanday bayram nishonlaydilar?

- a) yangi kun;

11. Qadimda selitra qanday nomlangan?

- a) Xitoy tuzi;
b) Misr olmosi;
c) Rim qumi.

12. Hamid Olimjon ushbu ertaklardan qaysi birining muallifi?

- a) «Umr»;
b) «Oygul bilan Baxtiyor»;
c) «Bulbul».

13. Yerdan ko'rinadigan eng yorqin sayyora qanday nomlanadi?

- a) Mars;
b) Venera;
c) Yupiter.



14. Makedoniyalik Iskandar Zulqarnaynga qarshi qo'zg'olonga kim boshchilik qilgan?

- a) Faresmon;
b) Shiroq;
c) Spitamen.

Hilola EGAMBERDIYEVA,
Toshkent shahar, A.Ikromov
tumanidagi 312 - maktab
o'quvchisi.

Bizning to'garak

O'ZBEKISTONIM



Bir o'lkasan, tog'laringda o'ynaydi ohu,
Har bulog'ing, har giyohing sehrli jodu.
Quyosh, oy ham sochar senga o'zgacha yog'du,
Tangri siylab bergan azal jannat makonim,
O'zbekistonim!
Bog'laringda afsonaviy gullar bitadi,
Ezgulikni eltib har yil Navro'z o'tadi,
Tuprog'ingning har zarrasi ne'mat tutadi,
Maqsadiga Hizr yo'ldosh bobo dehqonim,
O'zbekistonim!
Yurtim, sharqni lol aylagan odatlaring bor,
Sha'n, mazmuni asrga teng soatlaring bor,
Qaldirg'oching tilida ham oyatlaring bor,
Har qadami bitilmagan buyuk dostonim,
O'zbekistonim!

*Shahnoza OYDINOVA,
Alisher Navoiy nomli Respublika Nafis san'at
litseyining 11 - sinf o'quvchisi.*

DUNYO

Dunyo, nega buncha bag'ring tosh,
Ummon-ummon o'ylovlaring bor.
Rozi bo'lmas hech kimsa sendan,
Men yashashdan qilayapman or.
O'tkinchi bu foni dunyodan,
Toju taxtmas, so'ragayman baxt.
Umrin so'nggi kuniga qadar,
Ezgulikka intilgum albat.

*Oydina HAYDAROVA,
Buxoro viloyati, Shofirkon
tumanidagi Navbahor qishlog'i.*



NA XUSHKI BO'LGAY YORNING...

Na xushki bo'lgay yorning o'ltursam o'trusida,
Vasl zavqin bir dam tuysam, mayli, ish

qayg'usida.

Agar boqsam ko'zlariga qilsin mayli, afsunin,
Kim, ko'ngul mast bo'lur hatto sehr-la jodusida.
O'rib qo'ysam ul sanamning tong emas sochlarin,

yo,

Sochin o'rsam uzun qilib, ko'zlarim ko'zgusida.
Qonib ichsam sarchashmadek, bir nafas ul

mehridin,

Yo chashmadek jilg'a qilsam mehrining yog'dusida.
Men yonib may tutganimda, ul tabassum qilsa bas,
Lab nihoni zohir o'lgay chun o'shal kulgusida.
Bas, Rustam, hozir yordam ne istama bo'lmas bajo,
Nazi tuz, hadya et, balki so'ng bo'lur bo'lg'usida.

Rustam TURSUNOV,

*Hamza tumanidagi 204 - maktabning 9 - «G» sinf
o'quvchisi*

ULUG' BAYRAM MUBORAK!

Mustaqil davlat bo'ldik,
11 yoshga ham to'ldik,
Yaxshi kunlarni ko'rdik,
Ulug' bayram muborak!

Intilaylik biz har on,
Porloq kelajak tomon,
Yurtboshim bo'lsin omon,
Qutlug' bayram muborak!

Shunday kunlarni ko'rib,
To'qson-yuzlarga to'lib,
Yuraylik doim kulib,
Ulug' bayram muborak!

*Mahmudjon AZIMOV,
Shayxontohur tumanidagi
169-maktabning 6-sinf
o'quvchisi.*

YURTIM

Mustaqillik kunday boqib,
Yurtim, senga yarashdi.
O'zgarishu yuksalishdan,
Qizing ko'zi qamashdi.
Sog'lom, barkamol avlodning,
Bag'ringda shod yuradi.
O'g'il-qizing tuzing oqlab,
Kelajaging quradi.

Shahlo UMAROVA.

SHAMOL

Dov-daraxtni silkitib,
Qayga buncha shoshasan?
Maqsad sari intilib,
Dala, qirdan oshasan.
Shivir-shivirlab asta,
Mayin qo'shiq boshlaysan.
Sira xorib, tolmaysan,
Shamol, menga o'xshaysan.

*Muattar BARATOVA,
Samarqand viloyati,
Poyariq tumanidagi
1 - o'rta maktabning
4 - «V» sinf o'quvchisi.*



*Buxorolik tengdoshingiz Xurshid
ASADOV ham multfilmlarni juda
sevib tomosha qilar, keyin esa film
qahramonlarining rasmlarini
chizishga harakat qilar ekan.
Ushbu sahifamizni Xurshidjonning
chizgan rasmlari bilan bezatishni
lozim topdik.*



CHISTON VA TOPISHMOQLAR

Asl nomlanmishdir Chinu Mochin odami,
Besh-olti tuman yillar avvali,
Otashni kashf etti ul ajdodi mardum
Fikr, ongi xiyol o'sg'on kim erkon, qani?

(Sintrop.)



Udir hammaga ona,
Muruvvatda yagona.

(Tabiat.)

Barcha so'zi farmonda,
O'zi yashar o'rmonda.

Bir zobitkim, zabt etti Osiyoni,
Qilichi-la zir titratdi dunyoni.
Va moziyda qoldi Zulqarnayn nomi,
Topingiz, qay mardumlig'in ani?

(Iskandar.)

Ayyorlikda tengi yo'q,
Shuning uchun qorni to'q.



Deydilarki, ham alloma, munajjim erkan,
Qalbi dunyo unsurig'a oshiyon erkan.
77 yoshida sindirdilar jon jomin,
Avestoni yaratg'on mardum kim erkan?

(Zardush.)



Daraxtga farzand bo'lar,
Ko'klamda kuchga to'lar.

Nargiza PAYZIYEVA,
Alisher Navoiy nomidagi Nafis san'at
litseyi o'quvchisi.

Sadafxon YUNUSALI qizi,
Andijon viloyati, Izboskan tumanidagi
48 - maktabning 8 - sinf o'quvchisi.

Qadim zamonda juda kambag'al bir yigit yashagan ekan. U qushlar uchun qafas yasay, lekin bu ishidan juda kam pul toparkan. Nochorlik uning joniga tegibdi. Bir kuni u bozordan qaytib kelib, o'ksib-o'ksib yig'lay boshlabdi.

Shunda qulog'iga «Qushni qafasga sol» degan ovoz eshitilibdi.

Qarasa, ro'parasida bir kekxa odam jilmayib turardi. «Menda qush yo'q-ku» debdi u ajablanib. Mehmon xushtak chalgan ekan, chiroyli havorang bir qushcha uchib kelibdi va o'zi qafasga kirib olibdi.

- Bu qushcha senga yordam beradi,-debdi haligi mo'ysafid. - «Qushcha, karomatingni

ko'rsat!» desang kifoya, istagan narsangni ro'yobga chiqaradi. Ammo qushchaga rahmat aytishni unutma...

Kambag'al juda och edi. Shu zahotiyog «Qushcha,

karomatingni ko'rsat!» deb farmon beribdi. Shu payt uning oldida nozu-ne'matlar bilan liq to'la stol paydo bo'lib qolibdi. Mazza qilib qorin to'ydirib olib, mehmonga ham, havorang qushchaga ham astoydil minnatdorchilik

bildiribdi.

Ertasi kuni kambag'al yigit bozorga boribdi. Yo'lda u bir qishloqqa kiribdi. Qishloq ahli bahor bayramini nishonlash uchun hozirlik

ko'rishayotgan ekan. Qishloqning eng chiroyli, sarv qomatli qizi ko'klam malikasi bo'lishi va u oppoq libos kiyishi lozim ekan. Biroq ular malika uchun oppoq libos topolmay turishgan ekan. Shunda haligi yigit «Qushcha, karomatingni

ko'rsat!» debdi. Shu payt qishloqning eng go'zal qizining ustida oppoq, nafis ko'ylak paydo bo'lib qolibdi. Qishloq odamlari hali bunaqa chiroyli ko'ylakni ko'rishmagan ekan. Juda xursand bo'lib, notanish yigitga minnatdorchilik bildirishibdi. Yigit esa ana shu go'zal qizni sevib qolib, unga uylanibdi va baxtli hayot kechira boshlabdi.

Shu-shu bu serhimmat yigit yordamga muhtoj insonlarga ko'maklashib yurar va har gal havorang qushchasiga rahmat aytishni unutmas ekan.

Faxriddin XOLIQOV,
Namangan viloyati,
To'raqo'rg'on tumanidagi
Kattaqo'rg'oncha qishlog'i.

HAVORANG QUSHCHA

(Shved xalq ertagi)



BO'SH O'TIRMAI, BOSH QOTIR!

«TOPGAN TOPALAQ» KROSSVORDI



SAVOLLAR

Eniga:

1. Koptok emas, dumaloq,
Unda bor shahar, qishloq.
Daryo, dengiz, tog', dovon,
Qiru adir va o'rmon.
5. Otamdan meros oldim,
Yerga ko'msam chirimas.
6. Beli qilday, boshi xumday.
7. Kichkinagina dekcha,
Ichi to'la mixcha.

Bo'yiga:

1. Boshi taroq, dumi o'roq.
2. Qat-qat quloq,
Dum-dumaloq.
3. Bir uyda ikki o'rtoq,
Biri sariq, biri oq.
4. Oyog'i yo'q uchadi,
Qanoti yo'q qochadi.
8. So'ramay eshik ochar.

Tuzuvchi:

Dilrabo
DO'STQOBILOVA,
Toshkent shahar,
Yakkasaroy
tumanidagi
118 - maktabning
5 - «A» sinf
o'quvchisi.

O'TGANLARNING OXIRATI OBOD BO'LSIN
«Tong yulduzi» tahririyati jamoasi gazeta bosh muharriri Umida
Abduazimovaga padari buzrukvor
Murod ota ABDUAZIMOVning
vafoti munosabati bilan chuqur ta'ziya izhor etadi.

Ona yulduzi - oltin beshigini
TONG
Yulduzi

O'zbekiston bolalari va
o'smirlarining gazetasi

Muassislar:
O'ZBEKISTON
MATBUOT VA AXBOROT
AGENTLIGI,
O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI XALQ
TA'LIMI VAZIRLIGI,
«KAMOLOT»
YOSHLAR IJTIMOY
HARAKATI,
«SOG'LOM AVLOD
UCHUN» XAYRIYA
JAMG'ARMASI

BOSH MUHARRIR:
Umida ABDUAZIMOVA
TAHRIR HAY'ATI:
Shuhrat AHMEDOV,
Jamoliddin FOZILOV,
Oynisa
MUSURMONOVA,
Qahramon
QURONBOYEV,
Feruza JALILOVA
(Bosh muharrir
o'rinbosari),
Po'lat MO'MIN,
Mukarrama MURODOVA,
Tohir MULLABOYEV,
Ergashvoy SARIQOV.

Noshir «Ijod dunyosi»
nashriyot uyi.

Gazeta «Ijod dunyosi»
nashriyot uyi kompyuter
bo'limida terib sahifalandi.
Hajmi A-3, 2 bosma
taboq.
«Sharq» nashriyot-
matbaa aksiyadorlik
kompaniyasida 46.291
nuxxada ofset usulida bosildi.
Korxonada manzili: «Buyuk
Turon» ko'chasi, 41.
Buyurtma № Г-661
Gazetani
Muhabbat MAHSUDOVA
sahifaladi.
Navbatchi:
Feruza ODILOVA

Ro'yxatdan o'tish tartibi
№ 000137
Manzilimiz: 700129,
Toshkent shahri, Navoiy
ko'chasi, 30-uy.

Tel: 144-62-34.
144-63-08